

**GIYOHVANDLIK VA UNING INSON ORGANIZIMIGA TA'SIRI****Tilavoldiyeva D.X.***“Tibbiy va biologik fanlar” kafedrasida assistenti.***Xabibullayev Ne'matillo, Yo'ldasheva Zuxraxon***Davolash ishi yo'nalishi 2-kurs talabalari.**“Central Asian Medical University” xalqaro tibbiyot universiteti.*

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda ko'plab yoshlarni ongni zaharlayotgan giyohvand moddalarning inson organizimiga salbiy oqibatlari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Eyforiya, zotiljam, LSD, yiringli zaharlanish.*

Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik — narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qilish, aniqrog'i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Giyohvandlik. organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o'zgarishiga sabab bo'ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o'zini to'xtatib bo'lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste'mol qilish mayli paydo bo'ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog'liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog'chog'lik (qarang Eyforiya), xotirjamlik hissini uyg'otib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Giyohvandlik 2 zaylda avj olishi mumkin. Birinchi holda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo'lgan dorilarni uzoq vaqt va noto'g'ri qabul qilish og'riq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib borish; darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj bo'lmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik ta'siri va miqdori orta borib, pirovardida giyohvand moddaga moyillik kuchayib, u humor qiladigan bo'lib qoladi.

Agar giyohvand shunday moddalarni tomir ichiga yuborsa, u 5-10 yil yashashi mumkin. Shu vaqtning 90% i mobaynida u kasalliklarga chalinadi, davolanadi, yor do'stlaridan ayriladi, insoniylik qiyofasini yo'qotadi. Lekin har doim giyohvand moddalar uchun puli bo'lgan, ularni oz-ozdan qabul qilib yuradigan, o'z salomatligini halokat yoqasiga borguncha davolanib turadigan giyohvandlar uchungina ko'rsatilgan muddat to'g'ri keladi. Keyingi paytlarda paydo bo'lgan sintetik giyohvand preparatlarkrek, ekstazm va boshqa ko'pgina turlar yoki ilgaridan ma'lum bo'lgan LSD giyohvandning hayotiga u bilan tanishganidan 7-8 oy o'tgandayoq chek qo'yadi.

Giyohvand o'z organizmi bardosh bera oladiganidan ko'proq dozadagi giyohvand moddani qabul qilsa.

Sifatsiz giyohvand moddalardan zaharlanishga.

Kasalliklar qonning yiringli zaharlanishi, zotiljam, surunkali jigar yetishmovchiligiga.

□ Jigar faqat alkogolli ichimliklar iste'mol qilish natijasidagina emas, organizmning har qanday zaharlanishi tufayli ham qattiq zararlanishi mumkin.

Organizmga narkotik modda kirmasa, humorlik boshlanadi organizm og'ir ahvolda qolib, chuqur ruhiy va va jismoniy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Hastalik rivojlangan sari organizmda darmon qurishi ham kuchaya boradi, endi narkotik moddaning kuchi organizm uchun og'irlik qiladi. Narkotik moddalarning oldingi iste'mol qilib yurgan dozasi endi yomon ta'sir qila boshlaydi. Zaharlanish og'ir kechadi. Narkotik moddaning dozasi ozgina oshishi bilan bemor o'lib qolishi mumkin. Narkomaniyani davolash faqat psixiatriya kasalxonalarida vrachlarning qattiq nazorati ostida olib borilishi kerak. Yoshlarni giyohvandlik va boshqa illatlar ta'siridan asrash dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan tushuntirish, targ'ibot tadbirlarining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Shunday ekan har birimiz o'z hayotimizga befarq bo'lmasligimiz zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iskandarov X. GIYOHVAND MODDALARNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI VA GIYOHVAND MODDALARGA QARSHI KURASH CHORATADBIRLARI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-47.

2. Khatamova, D. A. (2019). Sphere of reception of the term “artistic image”. A young scientist. Kazan, 45, 283.

3. Parpiyeva, O. (2014). Инсон саломатлиги ва зарарли одатлар. Фарғона-2015 йил.

4. Parpiyeva, O. R., & Ostanaqulov, A. D. (2019). Health theory. Форум молодых ученых, (6 (34)), 26-28.

5. Parpiyeva, O. R., & Marifjonovna, B. N. (2019). The effect of harmful habits on human health. Мировая наука, (5 (26)), 76-78.

6. Parpiyeva, O. R. (2022). Basics of a healthy lifestyle in the educational process. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 89-94.

7. Parpieva, O. R., Muydinova, E., Safarova, G., & Boltaboeva, N. (2020). Social and psychological aspects of a healthy life style. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1364-1368.

8. Parpieva, O. R. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.

9. Parpiyeva, O. R., & Dzhalloldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.



10. Parpiyeva, O. R., Nazarova, D., Ro'ziboyeva, O., & Jumaboyeva, M. (2024). SALOMATLIK–OLIY QADRIYAT SIFATIDA. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 79-81.